



“JAHOLATGA QARSHI MA’RIFAT: EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHNING ENG SAMARALI YO‘LI”

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21755538>

*Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakulteti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

Valiyeva Parizoda Dilshod qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda dolzarb bo‘lib borayotgan ekstremizm va radikalizm muammolarining kelib chiqish omillari tahlil qilinadi hamda ularga qarshi kurashishda ma’rifatning o‘rni yoritiladi. Jaholat va bilim yetishmasligi ekstremistik g‘oyalarning tarqalishiga zamin yaratishi asoslanadi, shu bilan birga, yoshlar ongida mustahkam dunyoqarash, tanqidiy fikrlash va ma’naviy immunitetni shakllantirish zarurligi ochib beriladi. Ma’rifat orqali jamiyatda barqarorlikni ta’minlash, tinchlikni mustahkamlash va inson ongini zararli g‘oyalardan himoya qilish masalalari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ma’rifat, ekstremizm, radikalizm, g‘oyaviy tahdidlar, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy immunitet, tanqidiy fikrlash, ta’lim tizimi, ijtimoiy barqarorlik, mediasavodxonlik, bag‘rikenglik, milliy qadriyatlar, ong va tafakkur

Abstract: This article analyzes the underlying causes of extremism and radicalism, which are becoming increasingly pressing issues in modern society and highlights the crucial role of enlightenment and education in preventing them. It explains how ignorance and lack of knowledge create a favorable environment for the spread of extremist ideologies. Furthermore, the importance of developing a strong worldview, critical thinking skills and spiritual resilience among young people is emphasized. The article also explores ways to ensure social stability, strengthen peace and protect individuals from harmful ideas through education and awareness.

Keywords: enlightenment, ignorance, extremism, radicalism, ideological threats, youth education, spiritual resilience, critical thinking, education system, social stability, media literacy, tolerance, national values, consciousness and thinking.

Аннотация: В данной статье анализируются причины возникновения экстремизма и радикализма, которые становятся всё более актуальными в современном обществе, а также раскрывается роль просвещения в противодействии данным явлениям. Обосновывается, что невежество и недостаток знаний создают благоприятную среду для распространения экстремистских идей. Особое внимание уделяется формированию у молодёжи



устойчивого мироззрения, критического мышления и духовной устойчивости. Также рассматриваются пути обеспечения социальной стабильности, укрепления мира и защиты сознания человека от деструктивных идей посредством образования и просвещения.

Ключевые слова: *просвещение, невежество, экстремизм, радикализм, идеологические угрозы, воспитание молодёжи, духовная устойчивость, критическое мышление, система образования, социальная стабильность, медиаграмотность, толерантность, национальные ценности, сознание и мышление*

Bugungi kunda jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari insoniyat oldiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy xavf-xatarlarni ham qo'yimoqda. Axborot oqimining shiddatli ravishda ortib borishi va turli qarashlarning tezkor tarqalishi natijasida jamiyatdagi mafkuraviy kurash tobora keskin tus olmoqda. Ayniqsa, ekstremizm va radikalizm kabi salbiy hodisalar nafaqat alohida mintaqalar, balki butun bashariyat xavfsizligi hamda taraqqiyoti uchun eng jiddiy tahdidlardan biriga aylandi. Ushbu illatlar tashqi ko'rinishdan jozibador va adolatparvar g'oyalar niqobi ostida namoyon bo'lsa-da, ularning asl mohiyati jamiyatni parokandalikka yetaklash, insonlar ongini zaharlash va ijtimoiy osoyishtalikni izdan chiqarishga qaratilgandir. Eng xavfsizligi, bunday buzg'unchi qarashlar, odatda, hayotiy tajribasi yetarli bo'lmagan, dunyoqarashi to'liq shakllanmagan yoshlar orasida tez ildiz otadi. Shu bois, ekstremizmga qarshi kurash faqat ma'muriy yoki kuch ishlatish choralari bilan cheklanib qolmasligi lozim. Muammoning asosi inson tafakkuriga borib taqalgani sababli, unga qarshi eng samarali vosita – ma'rifatdir. Ma'rifat insonni haqiqatni

anglashga, voqea-hodisalarni xolis baholashga va zararli ta'sirlardan o'zini himoya qilishga o'rgatadi. Jaholat esa, aksincha, odamni to'g'ri yo'ldan adashtiradi, uning mustaqil fikrlash qobiliyatini bo'g'ib, yot g'oyalarga moyilligini oshiradi. Aynan shu sababli, bugungi kunda "jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili shunchaki dolzarb shior emas, balki strategik ahamiyatga ega tizimli yondashuvdir. Ushbu maqolada ekstremizm va radikalizmning g'oyaviy mohiyati, ularning kelib chiqish omillari hamda ushbu tahdidlarga qarshi kurashishda ma'rifat va ta'lim tizimining o'rni ilmiy-nazariy jihatdan keng tahlil qilinadi.⁶ Hozirgi paytda ekstremizm va radikalizm tushunchalari o'zining an'anaviy, ya'ni ochiq zo'ravonlik yoki qurolli to'qnashuvlarga asoslangan shakllaridan sezilarli darajada farqlanmoqda. XXI asr axborot jamiyatida buzg'unchi g'oyalar ko'proq axborot texnologiyalari, ijtimoiy-psixologik ta'sir usullari hamda kommunikativ strategiyalar orqali faoliyat yuritmoqda. Shu jihatdan

⁶ O'zbekiston Respublikasining "Ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2018. – 3–12-betlar.



zamonaviy ekstremizmning asosiy xususiyati uning bevosita jismoniy emas, balki inson ongi va ruhiyatiga qaratilgan ta'sirida namoyon bo'ladi. Bunday ta'sir mexanizmlari ko'pincha yashirin va tizimli xarakterga ega bo'lib, ularning natijasida ayrim yoshlar o'zlari bilmagan holda buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolishlari mumkin. Radikallashuv jarayoni, odatda, maqsadli auditoriyaning ijtimoiy va psixologik holatini o'rganishdan boshlanadi. Axborot makonida, xususan, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning kayfiyati, qiziqishlari va muammolari tahlil qilinadi. Hayotiy qiyinchiliklarga duch kelgan, o'z o'rnini topishda qiynalayotgan yoki ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezayotgan yoshlar bunday ta'sirga nisbatan ko'proq moyil bo'lishi mumkin. Shu asosda ular bilan aloqa o'rnatilib, dastlab do'stona va ishonch uyg'otuvchi muloqot shakli tanlanadi. Keyingi bosqichda esa shaxsni o'z ijtimoiy muhitidan ma'lum darajada ajratish tendensiyasi kuzatiladi. Muloqot jarayonida uning atrofida gilar, xususan oila va jamiyat haqidagi qarashlariga shubha uyg'otuvchi fikrlar singdiriladi. Natijada shaxs muqobil fikr manbalaridan uzoqlashib, ma'lum bir g'oyaviy ta'sir doirasida qolib ketishi mumkin. Bu jarayon psixologik jihatdan mustaqil fikrlashning susayishi va tashqi ta'sirlarga ortiqcha bog'lanish bilan izohlanadi. Zamonaviy davrda radikallashuv jarayonining muhim jihatlaridan biri uning raqamli makonda faol kechayotganidir. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar hamda qisqa

formatdagi videokontentlar orqali turli g'oyalar tez va keng tarqalmoqda.⁷ Ayniqsa, qisqa va hissiy ta'sirga ega axborotlar yoshlar ongiga tez singishi bilan ajralib turadi. Bunday axborotlar orqali voqea-hodisalar soddalashtirilgan, ba'zan esa bir tomonlama talqin qilinib, yoshlarning hissiy emotsiyalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababdan zamonaviy ekstremizmga qarshi kurashishda nafaqat an'anaviy xavfsizlik choralari kuchaytirish, balki axborot makonida ongli va tanqidiy yondashuvni shakllantirish, yoshlarning mediasavodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Radikallashuv oddiy va birdaniga yuzaga keladigan hodisa emas, balki asta-sekin shakllanadigan murakkab jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Uning eng xavfli tomoni shundaki, bu jarayon ko'pincha tashqaridan sezilmaydi. Ya'ni inson kundalik hayotini davom ettirayotgan bo'lsa-da, uning fikrlashida, voqelikka munosabatida sezilsiz o'zgarishlar paydo bo'la boshlaydi. Radikallashuvning shakllanishida muhim omillardan biri – bu shaxsning o'zini jamiyatda qanday his qilishi bilan bog'liq. O'zini keraksiz, tushunilmagan yoki e'tibordan chetda qolgan deb his qilgan odamlar ko'pincha o'ziga o'xshash insonlarni izlaydi. Shu jarayonda ular turli yopiq guruhlar va jamoalarga duch kelishi mumkin. Bunday guruhlar esa, odatda, oddiygina muloqotdan boshlanib, asta-sekin umumiy qarashlarni singdirishga o'tadi.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023. – 155, 156, 244'-moddalar.



Ayniqsa, internet muhitida bu jarayon ancha tezlashgan. Oldin odamlar ma'lum bir g'oya bilan tanishish uchun vaqt va joy jihatidan cheklangan bo'lsa, hozir esa bir necha daqiqada istalgan turdagi kontentga duch kelishi mumkin.⁸ Muammo shundaki, bu kontentlar orasida ishonchli va asossiz axborotlarni ajratish har doim ham oson emas. Ko'pincha qisqa, keskin va hissiy ta'sirga ega videolar yoki postlar insonning e'tiborini tez tortadi va ularni tanqidiy tahlil qilmasdan qabul qilish ehtimoli yuqori bo'ladi. Ushbu jarayonda asta-sekinlik bilan moslashish holati ham kuzatiladi. Ya'ni inson dastavval keskin g'oyalarni qabul qilmaydi, lekin unga yaqinroq shakldagi fikrlar taklif etiladi. Vaqt o'tishi bilan bu fikrlar kuchayib boradi va natijada avval rad etilgan qarashlar ham odatiy holga aylanib qolishi mumkin. Bu hodisa shunchalik sekin kechadi va hattoki insonning o'zi ham undagi o'zgarishlarni sezmay qoladi. Yana bir muhim jihatga e'tibor qaratish lozim. Radikallashuv faqat axborot ta'siri natijasi emas. U ko'pincha ichki bo'shliq, aniq maqsadning yo'qligi yoki hayotdan qoniqmaslik kabi holatlar bilan ham bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham bir xil axborot hammaga birdek ta'sir qilmaydi. Kimdir uni oddiy ma'lumot sifatida qabul qilsa, boshqasi uni hayotiy yo'l sifatida ko'rishi mumkin. Aynan shu sababdan, radikallashuvni tushunish

uchun faqat tashqi omillarga emas, balki insonning ichki holatiga ham e'tibor qaratish zarur. Chunki bu jarayon aynan shu ikki omil kesishgan nuqtada yuzaga keladi.⁹ Uni chuqur anglash esa keyingi bosqichlarda muammoni to'g'ri tahlil qilish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllangan. So'nggi yillarda bu borada nafaqat kuch ishlatishga asoslangan yondashuv, balki profilaktika, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olgan kompleks tizim yo'lga qo'yildi. Bunday yondashuv radikallashuvning asl sabablariga e'tibor qaratish orqali muammoni ildizidan hal etishga xizmat qilmoqda. Avvalo, mamlakatda ushbu yo'nalishning huquqiy asoslari mustahkamlanganini ta'kidlash lozim.¹⁰ Jumladan, "Ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, unda ekstremistik faoliyat tushunchasi, uning oldini olish mexanizmlari hamda javobgarlik choralari aniq belgilab berilgan. Shuningdek, Jinoyat kodeksida ham ekstremistik faoliyat bilan bog'liq qator moddalar mavjud bo'lib, ular orqali bunday harakatlarga nisbatan huquqiy baho beriladi. O'zbekistonda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan muhim

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni "Harakatlar strategiyasi to'g'risida". – Toshkent, 2017. – 25–28-betlar.

⁹ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 112–118-betlar.

¹⁰ Qurbonov A., Rasulov Sh. "Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash asoslari". – Toshkent: Akademiya, 2020. – 64–79-betlar.



tashabbuslardan yana biri – bu adashgan yoki turli oqimlar ta'siriga tushib qolgan shaxslarni jamiyatga qaytarish siyosatidir. Xususan, xorijiy davlatlarda murakkab vaziyatlarga tushib qolgan fuqarolarni yurtga qaytarish bo'yicha amalga oshirilgan "Mehr" operatsiyasi bunga misol bo'la oladi. Ushbu tashabbuslar orqali ko'plab ayollar va bolalar O'zbekistonga olib kelinib, ularning ijtimoiy moslashuvi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, yurtimizda diniy-ma'rifiy sohada ham sezilarli ishlar amalga oshirildi. Dinning asl insonparvarlik mohiyatini keng targ'ib qilish, noto'g'ri talqinlarga qarshi ilmiy asoslangan tushuntirishlar berish orqali aholining, ayniqsa yoshlarning diniy savodxonligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa radikal g'oyalarning ildiz otish ehtimolini kamaytirishda muhim rol o'ynamoqda.¹¹ Ekstremizm va radikalizm masalasi oddiy xavfsizlik muammosi doirasidan chiqib, murakkab ijtimoiy, psixologik va axborot hodisasiga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada ko'rib chiqilganidek, bugungi radikallashuv jarayonlari ochiq zo'ravonlikdan ko'ra ko'proq ongga ta'sir qilish, fikrni shakllantirish va insonning ichki qarashlarini o'zgartirish orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa muammoning ko'lami va uni hal etish yo'llariga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, radikallashuv tasodifiy jarayon emas. U

ma'lum ijtimoiy muhit, psixologik holat va axborot ta'siri kesishgan nuqtada shakllanadi. Asosan, o'z o'rnini topa olmayotgan, hayotiy savollarga javob izlayotgan yoki ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan yoshlar bunday ta'sirga kattalarga nisbatan ko'proq moyil bo'lishi mumkin. Shu sababli muammoni faqatgina tashqi belgilar orqali emas, balki uning ichki sabablarini anglash orqali hal etish muhim. Bundan tashqari, ekstremizmga qarshi kurashda eng samarali yo'l – bu kompleks yondashuvdir. Ya'ni huquqiy choralalar, profilaktika ishlari, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi bir-biri bilan uyg'un holda olib borilgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Xulosa qilsak, inson omiliga e'tibor qaratish, adashganlarni jazolashdan ko'ra ularni to'g'ri yo'lga qaytarishga intilish ushbu siyosatning muhim jihati sifatida namoyon bo'lmoqda. Ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash faqat davlat yoki alohida institutlar zimmasidagi vazifa emas. Bu jarayon jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa yoshlar ongida sog'lom fikr, mustahkam dunyoqarash va hayotiy maqsadlarni shakllantirish bilan bog'liq uzluksiz jarayondir. Aynan shu yo'l bilan barqaror, xavfsiz va ongli jamiyatni barpo etish mumkin.

¹¹ Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 210–219-betlar.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2018. – 3–12-betlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023. – 155, 156, 244¹-moddalar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. – Toshkent, 2017. – 25–28-betlar.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 210–219-betlar.